# RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING NAZARIY ASOSLARI VA IQTISODIY RIVOJLANISHGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
"Buxgalteriya hisobi" fakulteti talabasi
Abdukarimov Qamariddin Isroiljon o'g'li
Elektron pochta: qamariddinabdukarimov5@gmail.com
Bog'lanish uchun raqam: 905200655
Ilmiy rabar: Beknazarov Zafarjon Ergachevich
Iqtisodiyot fanlari doktori,professor

**Annotatsiya:** Ushbu tezis raqamli transformatsiyaning nazariy poydevorini tahlil qilish va uning iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi asosiy omillarini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqot muammosi sifatida raqamli transformatsiya tushunchasining ko'p qirrali tabiatini to'liq qamrab oluvchi yagona nazariy yondashuv yo'qligi va amaliyotda bu jarayonni iqtisodiy o'sish bilan bog'lovchi omillarning yetarli darajada tizimlashtirimaganligi belgilangan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy-tarixiy tahlil, tizimli yondashuv va institutsional iqtisodiyot nazariyasi usullaridan foydalanilgan. Natijalar ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya jarayoni to'rtta asosiy omillar majmuasi - texnologik infratuzilma, inson kapitali, institutsional muhit va moliyaviy resurslar - bilan bevosita bog'liq bo'lib, ushbu omillarning bir-biri bilan uyg'unligi iqtisodiy samaradorlikning asosiy shartidir.

**Kalit so'zlar:** Raqamli transformatsiya, iqtisodiy rivojlanish, texnologik omillar, inson kapitali, institutsional muhit, raqamli infratuzilma, to'rtinchi sanoat inqilobi, "Raqamli O'zbekiston – 2030".

## KIRISH

Axborot - kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, bulutli hisoblash, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar tahlili va kabi yangi texnologiyalarning

keng tarqalishi butun jahon iqtisodiy tizimida tub sifat o‘zgarishlarini yuzaga keltirmoqda. Bu o‘zgarishlar majmuasi bugungi kunda raqamli transformatsiya deb atalib, u nafaqat alohida korxonalar yoki tarmoqlar, balki milliy iqtisodiyotlar va xalqaro savdo tizimining butun arxitekturasini qayta shakllantirmoqda.

Jahon bank ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli iqtisodiyot global YaIMning 15,5 foizini tashkil etib, 2025-yilga qadar bu ko‘rsatkich 25 foizga yetishi prognoz qilinmoqda.

O‘zbekiston uchun ushbu jarayonning ahamiyati O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-6079-sonli farmonida o‘z aksini topgan. Ushbu strategik hujjat 2030-yilga qadar raqamli iqtisodiyot ulushini YaIMning 30 foiziga yetkazish, elektron hukumatni to‘liq joriy etish va raqamli infratuzilmani mamlakatning barcha hududlarida kengaytirish vazifalarini belgilab bergan. Bundan tashqari, 2022-yil 28-yanvardagi “2022–2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmon raqamli transformatsiyani mamlakat rivojlanishining beshta ustuvor yo‘nalishidan biri sifatida belgilagan.

**ASOSIY QISM**

Raqamli transformatsiya nazariyasining shakllanishida bir qator yetakchi olimlarning ishlari muhim o‘rin egallaydi. Erik Stolterman Umeo universitetining professori bo‘lib, raqamli transformatsiya tushunchasini ilk bor ilmiy jihatdan asoslab bergan olimlardan hisoblanadi. U 2004-yilda Anna Kristina Fors bilan birgalikda yozgan “Information Technology and the Good Life” asarida raqamli texnologiyalarning inson hayotining barcha qirralariga kirib borishi jarayonini “raqamli transformatsiya” atamasi bilan birinchilardan bo‘lib ta’riflagan. George Westerman MIT Sloan School of Management ning tadqiqot olimi bo‘lib, Didier Bonnet va Andrew McAfee bilan hamkorlikda 2014-yilda nashr etilgan “Leading Digital: Turning Technology Into Business Transformation” kitobida raqamli

transformatsiyaning to‘qqiz asosiy elementi va “raqamli ustunlik” kontseptsiyasini ishlab chiqqan. 400 dan ortiq yirik korporatsiya tajribasiga asoslangan bu asar raqamli o‘tish jarayonlari nazariyasi uchun keng tan olingan metodologik asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Gregory Vial HEC Montrealning professori bo‘lib, 2019-yilda “Journal of Strategic Information Systems” jurnalida nashr etilgan “Understanding Digital Transformation: A Review and a Research Agenda” maqolasida raqamli transformatsiya bo‘yicha o‘tkazilgan 150 dan ortiq ilmiy tadqiqot natijalarini umumlashtirib, iqtisodiy tizimda raqamli o‘zgarishlarning qiymat yaratish mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Raqamli transformatsiya nazariyasining poydevori haqida gap ketganda, bu jarayonni tushuntiruvchi bir necha muhim nazariy yondashuv mavjud. Texnologiyaning diffuziyasi nazariyasi (Everett Rogers, 1962) nuqtai nazaridan raqamli texnologiyalar yangilikni qabul qilish tezligi va jamiyatdagi tarqalish darajasiga ko‘ra milliy iqtisodiyotlarda turlicha iqtisodiy samara beradi. Umumiy texnologiyalar nazariyasi (General Purpose Technology Theory) esa raqamli texnologiyalarni bug‘ mashinasi yoki elektrga qiyos qilib, ularni ko‘plab tarmoqlarda qo‘llanish imkoniyatiga ega bo‘lgan asosiy texnologiyalar sifatida ko‘rib chiqadi va shu orqali iqtisodiyot miqyosidagi tub o‘zgarishlarga sabab bo‘lishini tushuntiradi.

Tadqiqot doirasida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy rivojlanishga ta'sir etuvchi omillari to‘rtta asosiy yo’nalishda ko’rib chiqishimiz mumkin. Birinchi yo’nalish - texnologik infratuzilma: keng polosali internet qamrovi, bulutli hisoblash imkoniyatlari va mobil aloqa tarmoqlarining rivojlanishi iqtisodiy faollikning asosiy platformasini tashkil etadi. Ikkinchi yo’nalish - inson kapitali: raqamli savodxonlik, IT mutaxassislar tayyorlash tizimi va uzluksiz ta’lim imkoniyatlari raqamli transformatsiyaning barqaror amaliyotga tatbiq etilishini ta’minlovchi insoniy resurs bazasini shakllantiradi. Uchinchi yo’nalish - institutsional muhit: me’yoriy-huquqiy baza, davlat-xususiy sektor hamkorligi modellari va raqamli boshqaruv tuzilmalari

transformatsiya jarayoniga tizimli xarakter beradi. To‘rtinchi yo’nalish - moliyaviy resurslar: davlat investitsiyalari, xususiy kapital jalbi va xalqaro moliyaviy yordam raqamli infratuzilma qurilishi va innovatsion loyihalar amalga oshirilishi uchun zarur moddiy bazani ta’minlaydi.

Jahon tajribasida raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini yaqqol ko‘rsatuvchi misollar ko‘p. Shu jumladan, Estoniya 2000-yillarning boshida amalga oshirgan tizimli raqamlashtirish islohotlari natijasida bugungi kunda YaIMning 3,5 - 4 foizini raqamli xizmatlar eksportidan olmoqda va elektron hukumat xizmatlarining 99 foizi onlayn tartibda amalga oshirilmoqda. Janubiy Koreya esa raqamli infratuzilmaga YaIMning 4,5 foizini sarflab, iqtisodiy o‘sish sur’atlarini barqarorlashtirish va mehnat unumdorligini oshirishda sezilarli yutuqlarga erishdi.

O‘zbekiston bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yilda axborot va aloqa xizmatlari sohasi eng yuqori o‘sish sur’atini ko‘rsatib, yil davomida 125,8 foizlik o‘sishni qayd etdi. AKT sektorining YaIMdagi ulushi 2019-yildagi 2,1 foizdan 2024-yilda 3,8 foizga oshdi. IT Park rezidentlari soni 2023-yil yakuniga ko‘ra 1 652 taga yetib, ularning eksport hajmi 2022-yilga nisbatan sezilarli o‘sishni ko‘rsatdi, 2030-yilga qadar esa IT xizmatlari eksportini 5 milliard dollarga yetkazish maqsad qilib belgilangan. Shu bilan birga, internet foydalanuvchilari soni 2024-yilda aholining 79 foizini tashkil etib, 2019-yilga nisbatan 28 foiz punktga o‘sdi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, raqamli transformatsiyaning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri to‘g‘ridan-to‘g‘ri (mehnat unumdorligi o‘sishi, yangi ish o‘rinlari yaratilishi, eksport kengayishi) va bilvosita (institutsional sifat yaxshilanishi, axborot assimetriyasining kamayishi, innovatsion muhitning shakllanishi) yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshadi.

**XULOSA**

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, raqamli transformatsiya zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Axborot-

kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar tahlili, bulutli hisoblash va narsalar interneti kabi texnologiyalarning keng joriy etilishi iqtisodiy tizimning ishlab chiqarish, boshqaruv va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini tubdan o‘zgartirmoqda. Shu sababli raqamli transformatsiya nafaqat texnologik yangilanish jarayoni, balki iqtisodiyotning institutsional, ijtimoiy va tashkiliy tuzilmasini ham yangilovchi kompleks rivojlanish omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot davomida raqamli transformatsiya nazariyasining shakllanishiga oid ilmiy qarashlar tahlil qilinib, ushbu jarayonni tushuntiruvchi asosiy nazariy yondashuvlar - texnologiyalar diffuziyasi nazariyasi hamda umumiy texnologiyalar nazariyasining mazkur jarayondagi ahamiyati ko‘rsatib berildi. Ushbu nazariy asoslar raqamli texnologiyalarning iqtisodiyot tarmoqlariga bosqichma-bosqich kirib borishi va ularning keng qo‘llanilishi natijasida yangi iqtisodiy imkoniyatlar vujudga kelishini ilmiy jihatdan izohlab beradi.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya iqtisodiy tizimning samaradorligini oshirish, yangi ish o‘rinlari yaratish, eksport salohiyatini kengaytirish hamda milliy iqtisodiyotning global raqobatbardoshligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois raqamli transformatsiyani faqat texnologik yangilanish sifatida emas, balki iqtisodiyotning barcha tarkibiy qismlarini qamrab oluvchi kompleks rivojlanish jarayoni sifatida ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Mazkur tadqiqot natijalari raqamli transformatsiyaning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini tizimli baholash hamda ushbu jarayonni samarali boshqarish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Stolterman E., Fors A.C. Information Technology and the Good Life Information Systems Research: Relevant Theory and Informed Practice. - Boston: Springer,

2004. - P. 687-692.

2. Westerman G., Bonnet D., McAfee A. Leading Digital: Turning Technology Into Business Transformation. - Boston: Harvard Business Review Press, 2014. - 280 p.
3. Vial G. Understanding Digital Transformation: A Review and a Research Agenda Journal of Strategic Information Systems. - 2019. - Vol. 28(2). - P. 118-144.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-6079-sonli Farmoni. - https://lex.uz/docs/-5030957
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni. - https://lex.uz/ru/docs/-5841063
6. O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi. Rasmiy statistik ma’lumotlar, 2024. - https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika
7. Daryo.uz. O‘zbekistonda AKT xizmatlarining YaIMdagi ulushi oshgani ma’lum qilindi, 2024. - https://daryo.uz
8. World Bank. Digital Economy for Inclusive Growth: Overview 2024. - https://www.worldbank.org